

EKOLOGIK HOLATGA SALBIY TA'SIR KO'RSATUVCHI OMILLAR

ФАКТОРЫ, НЕГАТИВНО ВЛИЯЮЩИЕ НА ЭКОЛОГИЧЕСКУЮ СИТУАЦИЮ

FACTORS NEGATIVELY AFFECTING THE ECOLOGICAL SITUATION

Obidov Nodir Zohid o'g'li

GulDu magistri, Guliston sh.

Obidovnodir7@gmail.com

Annotatsiya. *Mazkur ishda Uchinchi ming yillikda insoniyat duch kelayotgan global ekologik muammolar — iqlim o'zgarishi, ozon qatlaminig yemirilishi, suv va havo ifloslanishi, o'rmonlarning kesilishi hamda neft to'kilishlari kabi omillar tahlil qilinadi. Ekologik holatga inson faoliyatining ta'siri, Qora dengiz va Arabi dengizidagi ekologik fojialar misolida yoritilgan. Shuningdek, ekologik muammolarni bartarafetish va barqaror rivojlanishni ta'minlashga qaratilgan amaliy yechimlar taklif etiladi.*

Kalit so'zlar: *Suv ifloslanishi, sivilizatsiya, global muammolar, ozon qatlami, suv ifloslanishi, o'rmonlar kesilishi, qora dengiz, arab dengizi, gipertoniya, jsst ma'lumoti.*

Аннотация: *В работе анализируются глобальные экологические проблемы, с которыми сталкивается человечество в третьем тысячелетии: изменение климата, разрушение озонового слоя, загрязнение воды и воздуха, вырубка лесов, разливы нефти. Влияние деятельности человека на экологическую обстановку проиллюстрировано на примере экологических катастроф в Черном и Аравийском морях. Предлагаются практические решения для устранения экологических проблем и обеспечения устойчивого развития.*

Ключевые слова: *Загрязнение воды, цивилизация, глобальные проблемы, озоновый слой, загрязнение воды, вырубка лесов, черное море, аравийское море, гипертония, информация воз.*

Annotation. *This work analyzes the global environmental problems facing humanity in the third millennium - climate change, ozone layer depletion, water and air pollution, deforestation, and oil spills. The impact of human activity on the ecological situation is illustrated by the example of environmental disasters in the Black Sea and the Arabian Sea. It also offers practical solutions aimed at eliminating environmental problems and ensuring sustainable development.*

Keywords: *Water pollution, civilization, global problems, ozone layer, water pollution, deforestation, Black Sea, Arabian Sea, hypertension, WHO information.*

Bilamizki, Uchinchi ming yillikning boshlanishi muhim ikki tamoyil bilan xarakterlanadi. Hozirgi sivilizatsiya global ekologik muammolar (iqlim o'zgarishi, ozon qatlami yemirilishi, ichimlik suvi ifloslanishi va yetishmasligi, o'rmon va tuproq inqirozi, bioxilma-xillik qisqarishi, ortiqcha hajmdagi chiqindilar hosil bo'lishi hamda ularni zararsizlantirish muammolari va boshqalar) bilan to'qnash keldi [1].

Iqlimni o'zgarishida ozon qatlamining yemirilishi, koinotni o'rganish yo'lida rivojlangan davlatlar tomonidan samoga bir necha yuzlab raketalarining uchirilishi aynan atmosferaga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Natijada koinotdan yer yuziga sovuq havoning kirib kelishi va natijada havoning ayrim hududlarda keskin sovub ketishiga yoki mo'tadil bo'lgan hududlarda buzilishlar sodir bo'lishiga sababchi bo'ladi. Bundan tashqari, yana bir qancha omillardan biri bu suvning ifloslanishidir. Yuqorida aytilganidek, Dengizlar Yerning eng yirik tabiiy tizimlaridan biridir. Ular **biosferadagi issiqlik, kislorod, uglerod aylanishida** muhim rol o'ynaydi. Ammo oxirgi bir necha asr davomida, ayniqsa XX asrning o'rtalaridan boshlab, inson faoliyati natijasida dengiz va okeanlarga katta miqdorda ifloslantiruvchi chiqindilar tashlanmoqda. Bu esa dengiz ekotizimlariga, hayvonot olamiga va inson salomatligiga jiddiy zarar keltirmoqda. Yiliga tonnalab chiqindilar ocean va dengizga tashlanib bulardan :

-Sanoat chiqindilari. Metallurgiya, kimyo, neftni qayta ishlash, to'qimachilik korxonalari chiqindilari daryolari orqali oqib tushadi. Ko'p hollarda bu chiqindilar tozalanmasdan tashlanadi.

-Neft va neft mahsulotlari. Dengiz transporti (tankerlar, kema halokatlari) natijasida to'kiladi. Har yili dunyo okeanlariga taxminan 6-8 million tonna neft tushadi. Bu suv sathida yupqa qatlam hosil qilib, kislorod almashinuvini to'sadi. Xususan, 2014-yil 4-yanvardagi holat bo'yicha Qora dengiz haqida. Rossiya 2014-yilda Ukrainadan tortib olgan Qrimda shanba kuni mintaqaviy favqulodda holat e'lon qildi, chunki ishchilar o'tgan oy Qora dengizda neft to'kilishi ortidan Kerch bo'g'ozining ikki tomonini tonnalab ifloslangan qum va tuproqdan tozalashdi.

Sevastopol shahrining Rossiya tomonidan tayinlangan gubernatori Mixail Razvozhaev kichik ifloslanishning yangi izlari zudlik bilan bartaraf etilishini va shaharda favqulodda holat e'lon qilishini aytdi - bu hokimiyatga fuqarolarni uylarini evakuatsiya qilishni buyurish kabi tezkor qarorlar qabul qilish uchun ko'proq vakolat beradi. Kerch bo'g'ozini Qora dengiz va Azov dengizi o'rtasidan o'tadi va Qrimning Kerch yarim orolini Rossiyaning Krasnodar o'lkasidan ajratib turadi.

Favqulodda vaziyatlar vazirligining shanba kuni ma'lum qilishicha, qutqaruvchilar hozirda 86 ming tonnadan ortiq ifloslangan qum va tuproqdan tozalangan. Neft 15 dekabr kuni bo'ronga uchragan ikkita eskirgan tankerdan sizib chiqqan. Ulardan biri cho'kib ketgan, ikkinchisi esa quruqlikka tushib qolgan. 10 000 dan ortiq odam yozgi dam olish maskani Anapa va uning atrofidagi qumli plyajlardan yopishqoq, yomon hidli mazutni tozalash ustida ishlamoqda. Ekologik guruhlar delfinlar, cho'chqalar va dengiz qushlarining o'limi haqida xabar berilgan. Keyinchalik, Favqulodda vaziyatlar vazirligi Telegram xabar

almashish ilovasida Rossiyaning kengroq Kuban mintaqasida va Rossiya tomonidan anneksiya qilingani boshqa mamlakatlar tomonidan tan olinmagan Qrimda neft bilan ifloslangan tuproq to'planganini aytdi.

Vazirlik himoya kiyimidagi o'nlab ishchilar tuproq qoplarini qazuvchilarga yuklayotgani, boshqalari esa belkurak bilan qumdan tuproqni tozalayotgani tasvirlangan videotasvirlarni e'lon qildi.

Rossiya transport vazirligining ma'lum qilishicha, bu hafta ekspertlar dengizga taxminan 2400 metrik tonna neft mahsuloti to'kilganini aniqlagan, bu dastlab qo'rqib ketganidan kichikroqdir.

Tabiiy ofat yuz berganida, davlat ommaviy axborot vositalarining xabar berishicha, halokatga uchragan tankerlar 50 yoshdan oshgan, jami 9200 metrik tonna (62 000 barrel) neft mahsulotlarini olib ketishgan.

To'kilishda 25 daraja Selsiy va F (77 daraja Farengeyt) haroratda qotib qoladigan va boshqa neft mahsulotlaridan farqli o'laroq, suv yuzasiga suzmaydi, balki tubiga cho'kadi yoki suv ustunida muallaq holatda qoladigan M100 markali og'ir mazut ishtirok etgan [2]. Bu ham ekologik holatga salbiy ta'sir ko'rsatganidan dalolat beradi.

Bunday holatlar hozirgi davrga kelib ham suvni ifloslanishiga oid bir qancha holatlar sodir bo'lgan. Arabi dengizi va Hind okeani (Kerala, Hindiston) 2025-yil 25-mayda, MSC Elsa 3 konteyner kemasi Arabi dengizi hududida (Kerala sohillariga yaqin) joyda cho'kkan. Bu hodisa yonilg'i oqishi xavfini tug'dirdi va sohillarga ifloslanish ehtimoli paydo qilgan. Kema dizel va o'choq moyi bilan birga 640 ta konteyner, jumladan kaltsiy karbid va oltingugurt kabi xavfli moddalarni olib ketayotgan edi. Muvofiqlashtirilgan qutqaruv operatsiyasidan so'ng barcha 24 ekipaj a'zosi, jumladan, kapitan va bortdagi muhandislar Hindiston dengiz floti va qirg'oq qo'riqlash xizmati tomonidan xavfsiz tarzda qutqarib olindi. Seshanba kuni tushga qadar Kerala qirg'og'iga yirik neft to'kilmasligi kuzatilmagan, ammo cho'kish joyi yaqinida neft pardasi aniqlangan. Kerala qirg'oqlari bo'ylab Neendakara, Sakthikulangara, Chavara, Cheriazheekkal va Thrikkunnappuzha kabi joylarda bir nechta konteynerlar yuvilgan. Rasmiylar saytdan 20 dengiz milya radiusida baliq ovlashga cheklov kiritdi. Ko'rinib turibdiki dengizga to'kilgan barcha neft mahsulotlari suvni ifloslanishini bartaraf etishgan hamda neft o'kilgan joyda vaqtinchalik cheklov o'rnatilgan [3].

Ekologik holatga salbiy ta'sir ko'rsatishda nafaqat atmosferadagi ozon qatlami va suvdagi chiqindilar balki, o'rmonlar kesilishi ham ekologiyaga jiddiy xavf keltirmoqda. Jahon Sog'liqni Saqlash Tashkiloti(JSST) ni oxirgi ma'lumotlariga ko'ra, taxminan 7 million o'lim holatiga ko'ra atmosfera havosi hamda xonalari havosi ifloslanishga sababchi bo'lmoqda. Hozirgi kunda havoni ifloslanishi gipertoniya ya'ni qon bosimi va ovqatlanish bilan bog'liq kasalliklarni kelib chiqishida xavf omillaridan keying o'rinda turadigan salomatlik uchun eng ahamiyatli global xavf omili hisoblanadi. O'zbekiston Ekologiya va tabiatni muhofaza qilish qo'mitasining ma'lumotlariga ko'ra, ishlab chiqarish korxonalari tomonidan tabiiy resurslar ifloslanmoqda. Jumladan, «Navoiyazot» AJ tomonidan

Zarafshon daryosiga hayot uchun xavfli bo'lgan moddalar oqizilgan, oqibatda daryo suvi zaharlanib, ko'plab baliqlar nobud bo'lgan. Ma'lumotlarga ko'ra, Zarafshon daryosi suvida azot ammoniy belgilangan me'yorlardan 21 marta, azot nitrat 2,6 marta, azot nitrit 60 marta, xloridlar 1,3 marta, mis ionlari 2,1 marta yuqori ekani va bu daryoda yoppasiga zaharlanish yuzaga kelishiga sabab bo'lganini ko'rsatgan [4].

Aynan yuqorida qayd etilgan negativ omillar bugungi kunda aholi salomatligiga salbiy ta'sir etib, ekologiyaga bog'liq kasalliklarni keltirib chiqarmoqda. Mazkur holatlarni chuqur o'rganish va tahlil qilish yo'lida Toshkent tibbiyot akademiyasi hamkorlik asosida ekologik omillarni o'rganish uchun moddiy texnik bazani yaratish, uni modernizatsiyalash va yetuk malakali kadrlarni tayyorlash yo'lida ildam qadam tashlamoqda. Jumladan, 2018 yilda tashkil etilgan "TTA-KU hamkorligidagi ilmiy markaz" Oliy ta'lim muassasalariaro ilmiy tadqiqot laboratoriyasi tarkibiga kiritildi. 2021-yilning 24-avgustida O'zbekiston sanitariya-epidemiologik (SES) osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmati tomonidan markazda yaratilgan sharoitlar gigiyenik va texnik talab darajasida ekanligini tasdiqlagan holda attestatsiyadan o'tgani to'g'risida guvohnoma berildi. Hozirgi kunda markazda doktorantlar, tayanch doktorantlar va 15 ga yaqin "Atrof muhit va inson salomatligi" mutaxassisligi magistratura talabalari ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishmoqda; deydi O'zbekiston Sanitariya Epidemiologik Stansiyasi.

Xulosa o'rnida shuni aytishim mumkinki, Uchinchi ming yillikda insoniyat taraqqiyoti bilan bir qatorda ekologik inqiroz holatlari ham chuqurlashib bormoqda. Ozon qatlamining yemirilishi, iqlim o'zgarishi, suv resurslarining ifloslanishi, o'rmonlarning kesilishi va chiqindilarning ortib borishi bugungi kunda global darajadagi ekologik muammolar sifatida yuzaga chiqmoqda. Ayniqsa, XX asrning o'rtalaridan boshlab texnika va sanoatning jadal rivojlanishi natijasida atmosferaga, suv havzalariga va tuproqqa katta hajmda zararli chiqindilar tashlanib, bu tabiiy muvozanatni izdan chiqarmoqda. So'nggi yillarda sodir bo'lgan ekologik fojialar, xususan Qora dengizda 2014-yilda va Arabi dengizida 2025-yilda neft mahsulotlarining to'kilishi, dengiz ekotizimiga, suv hayvonotiga hamda inson salomatligiga jiddiy zarar yetkazganini ko'rsatdi. Bunday holatlar nafaqat suvning ifloslanishiga, balki dengizdagi kislorod muvozanatining buzilishiga, delfinlar, qushlar va boshqa jonzoatlarning nobud bo'lishiga olib kelmoqda. Shuningdek, Zarafshon daryosining zaharlanishi misolida ko'rish mumkinki, ichki suv resurslarimiz ham sanoat korxonalarida chiqindilari sababli jiddiy ekologik xavf ostida. Bu holatlar natijasida aholi salomatligiga bevosita va bilvosita ta'sir kuchaymoqda. JSST ma'lumotlariga ko'ra, havoning ifloslanishi dunyo bo'yicha har yili millionlab insonlar o'limiga sabab bo'lmoqda. Ayniqsa, gipertoniya, yurak-qon tomir, nafas olish tizimi va allergik kasalliklar ekologik ifloslanish fonida keskin ortib bormoqda.

Inson omili va yechimlar. Atrof-muhitga salbiy ta'sir ko'rsatishda inson omili hal qiluvchi rol o'ynaydi. Ayni paytda insoniyat o'z qo'li bilan yaratgan ekologik muammolarning asosiy sababi ham, ularning yechimi ham o'sha insonning o'zidir. Shu bois quyidagi chora-tadbirlar muhim ahamiyat kasb etadi:

1. Sanoat chiqindilarini kamaytirish va tozalash tizimlarini modernizatsiya qilish
Korxonalarda ekologik nazoratni kuchaytirish;
Tozalash inshootlarini zamonaviy filtrlovchi texnologiyalar bilan jihozlash;
Qayta ishlash (resirkulyatsiya) tizimlarini keng joriy etish.

2. Energiya manbalarini yangilash

Neft va ko'mir o'rniga **quyosh, shamol, biomassa** kabi qayta tiklanuvchi energiyadan foydalanish;

Elektr transport vositalarini keng joriy etish orqali havoga chiqadigan zararli gazlarni kamaytirish.

3. Suv resurslarini himoya qilish

Sanoat chiqindilarining daryolarga oqizilishini qat'iy taqiqlash;

Neft to'kilishlarini monitoring qilish va tezkor bartaraf etish tizimlarini joriy etish;

Suvni tejash va tozalash texnologiyalarini rivojlantirish.

4. O'rmonlarni tiklash va yashil hududlarni kengaytirish

Daraxt ekish kampaniyalarini ommalashtirish;

Qonuniy va noqonuniy daraxt kesishga qarshi qat'iy chora ko'rish;

"Yashil makon" kabi loyihalarni barcha hududlarda amalga oshirish.

5. Aholi ekologik savodxonligini oshirish

Maktab va oliygohlarda ekologik ta'limni kuchaytirish;

Axborot vositalari orqali aholini atrof-muhitni asrashga chaqirish;

Har bir fuqaroning shaxsiy javobgarligini shakllantirish.

Xulosa qilib aytganda, ekologik muammolar inson faoliyati bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ularni hal etish uchun har bir inson, har bir davlat va butun jahon hamjamiyati birgalikda harakat qilishi zarur. Ekologik barqarorlikni ta'minlash — bu kelajak avlodlar uchun sog'lom muhit, toza suv, sof havo va yashil sayyorani saqlab qolish deganidir. Shu sababli, insoniyat bugun ekologik mas'uliyatni chuqur anglab, tabiat bilan uyg'un hayot kechirishni o'z hayot tarziga aylantirishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ekologiya muammolari aholi salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda - Alisher Shodmonov tabiatdagi o'zgarishlar haqida//<https://kun.uz/news/2021/12/03/ekologiya-muammolari-aholi-salomatligiga-salbiy-tasir-korsatmoqda-alisher-shodmonov-tabiatdagi-ozgarishlar-haqida?q=%2Fnews%2F2021%2F12%2F03%2Fekologiya-muammolari-aholi-salomatligiga-salbiy-tasir-korsatmoqda-alisher-shodmonov-tabiatdagi-ozgarishlar-haqida>Russia clears beaches after Black Sea oil spill, declares emergency in Crimea

2. https://www.reuters.com/world/europe/russia-clears-thousands-tons-contaminated-sand-after-black-sea-oil-spill-2025-01-04/?utm_source=chatgpt.com

3. https://en.wikipedia.org/wiki/2025_Kerala_oil

4. <https://kun.uz/news/2021/12/03/ekologiya-muammolari-aholi-salomatligiga-salbiy-tasir-korsatmoqda-alisher-shodmonov-tabiatdagi-ozgarishlar-haqida?>
5. Мирзаева, Н. Д., & Расулова, М. А. К. (2016). К вопросу о религиозном составе населения русских поселков в Голодной степи (начало XX века). Проблемы современной науки и образования, (11 (53)), 44-45.
6. Хамидова, Х., & Мирзаева, Н. (2022). Xx asr boshlarida mirzachol vohasidagi agrar o'zgarishlar (—Туркестанское сельское хозяйство jurnali asosida). Современные инновационные исследования актуальные проблемы и развитие тенденции: решения и перспективы, 1(1), 631-634.
7. Мирзаева, Н. Ж. (2025). XIX АСРНИНГ ОХИРИ XX АСР БОШЛАРИДА МИРЗАЧЎЛ ВОҲАСИ АҲОЛИСИНИНГ ДЕҲҚОНЧИЛИК МАДАНИЯТИДАГИ ТРАНСФОРМАЦИОН ЖАРАЁНЛАР. Решение социальных проблем в управлении и экономике, 4(4), 58-67.
8. Мирзаева, Н. (2011). Русские поселения Мирзачульского оазиса и их социально-экономическое положение в конце XIX—начале XX века. Каталог авторефератов, 1(1), 1-30.